

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

4-son (6-jild)

**2026**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 4 (6) – 2026*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2026**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdulkaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Sulaymanova Dildora Nazarovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

### *22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

### **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

### **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Махмудова Нигора Баротовна</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ОБЗОР ПЕНИТЕНЦИРНОГО ДЕЛА В КОЛОНИАЛЬНОМ ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ, ПО ОТЧЁТАМ РЕВИЗИИ СЕНАТОРА К.К.ПАЛЕНА .....	10-15
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i> RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI .....	16-20
<i>Абдиев Рузикул Буронович</i> ИСТОРИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СОХРАНЕНИЯ АРХИТЕКТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	21-27
<i>Абдужаббаров Шерзод</i> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ, ФУНКЦИИ И ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ СУЩЕСТВОВАНИЯ И РАБОТЫ СОВЕТА ТУРКЕСТАНСКОГО ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРА .....	28-33
<i>Boymurodov Shuxrat Toshkentovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA MAXSUS TA'LIM, SOHASIDA MA'NAVIY YANGILANISH .....	34-38
<i>Жураева Нафиса Олимовна</i> ТОПОГРАФИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ КУЛЬТОВЫХ СООРУЖЕНИЯХ НА ФОРМИРОВАНИЕ ГУЗАРОВ ГОРОДА БУХАРЫ .....	39-45
<i>Safarov Akmal</i> SUV XO'JALIGI SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	46-52
<i>Tursunova Mahliyo Sarvar qizi</i> XORIJIIY INVESTITSIYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING HUDUDIIY IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOTGA TA'SIRI (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA, 1991- 2026 -YILLAR).....	53-57
<i>Mardiyeva Guzal Karimovna</i> SAMARQAND VILOYATIDA SOVET DAVRINING DASTLABKI YILLARIDA XOTIN-QIZLARINING OLIY TA'LIMGA KIRISH IMKONIYATLARI VA CHEKLOVLAR .....	58-62
<i>Kenjayev Elyor Sattorovich</i> YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHDA STRATEGIK ISLOHOTLAR: TARAQQIYOT VA MA'NAVIY YUKSALISH UYG'UNLIGI .....	63-70
<i>Polvonov Kozimbek Naimovich, Polvonov Anvar Naimovich</i> QASHQADARYODAGI YETAKCHI O'QUV DARGOHLARIDAN BIRI .....	71-79
<i>Mo'minova Gavxar Esanovna</i> O'ZBEKISTON SAVDO TARIXINI O'RGANISHDA DAVLAT ARXIVLARI HUJJATLARINING O'RNI .....	80-85
<i>Norboyev Sarvar Qahramon o'g'li</i> O'ZBEKISTON TARIXIIY SHAHARLARINING XALQARO MIQYOSDA TAN OLINISHI .....	86-90

## 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Tillabaeva Umida Makhsumovna, Talipova Nigora Tulkunovna</i> DIGITALIZATION AND EMPLOYABILITY: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS OF RESEARCH TRENDS (2018–2025) .....	91-100
<i>Xudoyorov Lochinbek Bahromovich</i> O'ZBEKISTON SERVIS SOHASIDA XIZMATLAR SIFATI KO'RSATKICHLARINING DINAMIK TAHLILI .....	101-107
<i>Toxirov Akbarxon Toirxon o'g'li</i> INNOVATSION MARKETING INDEKSI ASOSIDA KORXONALARNING IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI .....	108-113
<i>Ismoilov Bekzod Muxidinovich</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA TURIZM SOHASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI .....	114-118
<i>Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich</i> O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK MUAMMOLARNING IJTIMOY-IQTISODIY OQIBATLARI KELIB CHIQISHI .....	119-135
<i>Nishonova Shaxnozaxon</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TIZIM SHAROITIDA LOYIHALARNI BOSHQARISH YONDASHUVLARI .....	136-140
<i>Fayziyeva Aziza Azamat qizi</i> SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING BANDLIK KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI: ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZ VA TAHLIL .....	141-154

## 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY RATSIONALIZM: TUSHUNCHA, EVOLYUTSIYA VA NAZARIY CHEGARALAR.....	155-165
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> O'ZBEKISTONDA KASABA UYUSHMALARINING IJTIMOY ADOLATNI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI .....	166-175
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> SAID AD-DIN AL-FARG'ONIY TA'LIMOTIDA ONTOLOGIK VA GNOSEOLOGIK ASOSLAR .....	176-181
<i>Abduraxmov Xasan Ibroximovich</i> KOGNITIV-AXBOROT MUHITINING SUN'IY INTELLEKT SHAROITIDA YOSHLAR IJODKORLIGI VA TASHABBUSKORLIGIGA TA'SIRI.....	182-188
<i>Xolova Umida Umedovna</i> "O'RTA ASRLAR FALSAFIY TAFAKKURIDA MA'RIFAT KONSEPSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY EVOLYUTSIYASI: TEOLOGIK VA MA'RIFIY BOSQICHLAR TAHLILI" .....	189-192
<i>Rajabova Rohila Zakirovna</i> AHMAD DONISH'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN HIS WORK "NAVODIR UL-VAKOE" .....	193-197
<i>Kabulov Jahongir Bakhodirovich</i> SEPARATIZMNING ASIMMETRIK XUSUSIYATI.....	198-202
<i>Eshkuvvatov Jaloliddin</i> MADANIYATLARARO MULOQOTDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR SINTEZI..	203-210

*Jomuradov Ikrom Ilxom o'g'li*  
IMMANUIL KANT VA ZAMONAVIY FALSAFADA NOUMENAL ERKINLIK MUAMMOSI:  
FENOMENAL DETERMINIZM BILAN BOG'LIQ ANTINOMIK ZIDDIYATNING DOLZARB  
TALQINLARI..... 211-215

*Rustamova Madina*  
OMMAVIY MANIPULYATSIYANING DESTRUKTIV XUSUSIYATI:  
TAHDIDLAR VA OQIBATLAR..... 216-220

*Yodgorov Alisher Nurmuhammadovich*  
AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IJTIMOYIY MUNOSABATLARNING  
TRANSFORMATSIYASI..... 221-225

#### **10.00.00 - FILOLOGIYA FANLARI**

*Isanova Feruza Tulqinovna*  
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA XALQARO HUQUQ TERMINOLOGIYASINING  
GIBRID TABIATI: SHAKLLANISH MANBALARI, STRUKTUR-SEMANTIK  
XUSUSIYATLARI VA FUNKSIONAL TAHLILI ..... 226-232

*Rahmatov Laziz, Baxronova Dilrabo*  
ABYA YALA (LOTIN AMERIKASI) DAVLATLARI NOMLARINING  
LINGVOPOLITIK DISKURSI: ETIMOLOGIK VA GEOSIYOSIY TAHLIL ..... 233-241

*Quvvatova Shaxlo Choriyevna*  
XOLID HUSAYNIYNING "MING QUYOSH SHU'LASI" ASARI TAHLILI..... 242-246

*Elmuratova Zamira Xodjamuratovna*  
NAQLLAR VA MAQOLLARNING FOLKLOR JANRIDAGI ROLI..... 247-251

#### **12.00.00 - YURIDIK FANLAR**

*Shayzakov Shodiyor Ibragimovich*  
QONUNIY KUCHGA KIRMAGAN SUD HUJJATLARI USTIDAN APELLYATSIYA  
TARTIBIDA SHIKOYAT QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY ASOSLARI..... 252-261

*Umarova Xolisxon Nomoz qizi*  
O'ZBEKISTONDA RAQOBATGA QARSHI KELISHUVLAR HAQIDA XABAR BERGANLIK  
UCHUN JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH VA JARIMALARNI KAMAYTIRISH TIZIMINI  
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI..... 262-269

*Аминова Наргиза*  
ОТ СЕКУЛЯРИЗМА К ПОСТСЕКУЛЯРНОСТИ:  
МОДЕЛИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ РЕЛИГИОЗНОГО И СВЕТСКОГО  
В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ ..... 270-277

*Amirov Agzamxon Aktamovich*  
QURILISHDA ULUSHLI ISHTIROK ETISH TUSHUNCHASINING TAHLILI..... 278-283

*Mamatmurodov Farrux Farxod o'g'li*  
SUKUKNING NAZARIY POYDEVORI HAMDA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI:  
ZAMONAVIY KAPITAL BOZORIDAGI O'RNI..... 284-294

*Kabilov Sardor Asrolovich*  
JINOIY JAVOGBARLIKDAN OZOD QILISH TURLARI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI .... 295-300

<i>Nosirov Bekzod O'ktam o'g'li</i> ETIL SPIRTI, ALKOGOL VA TAMAKI MAHSULOTLARINI VOJXONA CHEGARASIDAN NOQONUNIY OLIB O'TISH .....	301-304
<i>Sabirova Kuvanchay Babamuratovna</i> ГЕНДЕРНОЕ НАСИЛИЕ, УСИЛЕННОЕ ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ: ВЫЗОВЫ МЕЖДУНАРОДНОМУ ГУМАНИТАРНОМУ ПРАВУ И ПРОБЕЛЫ В ПРАВОВОМ РЕГУЛИРОВАНИИ .....	305-310
<i>Urinboyeva Muxlisa Ma'rufovna</i> MEDIATSIYA INSTITUTIDA SUN'IY INTELEKT IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI .....	311-318
<i>Majidov Islomjon Dilshod o'g'li</i> YAQIN QARINDOSHLAR BILAN BOG'LIQ HOLATLARDA TRANSPORT VOSITALARI HARAKATI YOKI ULARDAN FOYDALANISH XAVFSIZLIGI QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI KVALIFIKATSIYA QILISHDA INSONPARVARLIK PRINSIPINI QO'LLASH MASALALARI .....	319-325
<i>Habibullayev Muhammadrajab Obidjon o'g'li</i> HUQUQ VA IMKONIYATLAR MUVOZANATI: O'ZBEKISTONDA GENDER ADOLAT SARI YO'L.....	326-331
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Qurbonova Dilafroz Toshturdiyevna</i> TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSINING TARIXIY, ILMIY-ADABIY MANBALARDAGI TALQININI TALABA-QIZLARGA O'RGATISH .....	332-337
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i> SUMMATIVE ASSESSMENT AS A CONTEXT FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE: THE PROBLEM DIMENSION .....	338-344
<i>Abdullayeva Surayyo Ashrafxonovna</i> AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARIGA EGA BOLALAR TA'LIMI VA TARBIYASINING TARIXIY SHAKLLANISHI HAMDA IJTIMOY ASOSLARI .....	345-354
<i>G'affarova Dilfuza Shavkat qizi</i> TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	355-360
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> THE IMPACT OF VOLITIONAL QUALITIES OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON THE DEVELOPMENT OF BEHAVIORAL RESPONSES ENSURING EFFECTIVE SPORTS PERFORMANCE.....	361-367

**Received:** 16 March 2026

**Accepted:** 01 April 2026

**Published:** 15 April 2026

*Article / Original Paper*

## **ETHNOGRAPHIC ANALYSIS OF THE RISHTON SCHOOL OF POTTERY AND ITS LOCAL CHARACTERISTICS**

**Esonov Ziyodbek Yuldashevich**

Kokand State University

Associate Professor of the Department of History, PhD

**Abstract.** This article analyzes the history of the Rishton pottery center and the local characteristics of this pottery school from an ethnographic perspective. The focus is on shedding light on the factors that led to the emergence of unique local craft traditions in this pottery center during this period. The comments made are substantiated based on the opinions of researchers and the results of field research.

**Keywords:** Fergana Valley, Rishton pottery, researchers, product form, clay raw materials, pottery tools, local painting method, Rishton patterns, local traditions.

---

## **RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI VA UNING LOKAL XUSUSIYATLARI ETNOGRAFIK TAHLILI**

**Esonov Ziyodbek Yuldashevich**

Qo'qon davlat universiteti

Tarix kafedrasi dotsenti, PhD

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Rishton kulolchilik markazi tarixi, mazkur kulolchilik maktabining lokal xususiyatlari etnografik jihatdan tahlil etilgan. Bunda asosiy e'tibor bu davr mazkur kulolchilik markazida o'ziga xos mahalliy hunarmandchilik an'analari qanday omillar negizida yuzaga kelganligi masalasini yoritib berishga qaratilgan. Bildirilgan mulohazalar tadqiqotchilar fikrlari, dala tadqiqotlari natijalari asosida dalillangan.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona vodiysi, Rishton kulolchiligi, mavzu tadqiqotchilari, mahsulot shakli, tuproq xom-ashyosi, kulolchilik asboblari, mahalliy bo'yoq berish usuli, Rishton naqshlari, mahalliy an'analar.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I4Y2026N02>

Markaziy Osiyo jahondagi qadimiy tamaddun o'choqlaridan biri bo'lib, Farg'ona vodiysi bu mintaqa taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. Qulay geografik sharoiti va iqlimi hamda turli tabiiy resurslarga boyligi sabab qadimdan Farg'ona vodiysida turli xalqlar yashab xilma-xil hunarmandchilik tarmoqlarini rivojlantirib kelgan. Jumladan, ushbu hududda kulolchilik hunarmandchiligi taraqqiy etgan bo'lib, Rishton uning asosiy markazlaridan biri edi.

Rishton kulolchilik markazi bugungi kunga qadar uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra Rishtonda kulolchiligi ildizlari qadimiy davrga borib yetadi [1:755]. O'rta asrlarda ham bu taraqqiyot davom etgan [2: 24 ]. Temuriylar davrida sohani yangi yuksalishi boshlanib, XVIII asr boshida Qo'qon xonligini yuzaga kelishi bunga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XIX asr oxiri – XX asr boshida Rishton nafaqat Farg'ona vodiysi, balki Markaziy Osiyodagi yirik kulolchilik markaziga aylandi. Chunonchi, bu davrda Rishtonda 80 ta kulolchilik ustaxonasi va unda faoliyat yuritgan hunarmandlarning miqdori bu fikrimizni tasdiqlaydi [3:202 ]. Rishtonlik usta-kulollarning mahorati yuksalib xalqaro maydonda ham

tan olingan. Jumladan, 1899-yil Parij xalqaro ko'rgazmasida Rishton buyumlari oltin medal bilan mukofotlangan.

Mazkur davrda Rishton kulolchilik markazi taraqqiyotiga bir necha omillar ta'sir ko'rsatdi. Rishton kulolchiligi mazmunan takomillashishida vodiy kulolchilik markazlari *Qo'qon, Namangan, G'urumsaroy, Andijon, O'ratepa, Xo'jand, Konibodom* va o'lkamizdagi boshqa kulolchilik markazlari *Toshkent, Buxoro, Xorazm* bilan bo'lgan aloqalar muhim rol o'ynadi. Bu kulolchilik maktablarining mahsulot yasash, bezak berish, yangi turdagi buyumlarni ishlab chiqish borasidagi eng yaxshi an'analari Rishton kulolchiligida ham aks etdi. Biroq, Rishton kulolchiligi dovrug'ini keng tanitgan omillardan biri uni kulolchilik borasida yaratgan lokal an'analari edi deb ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

Rishton kulolchiligi lokal an'analari tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar negizida o'rganilgan bo'lib, bu yo'nalishdagi izlanishlar xronologiyasi quyidagicha. Rishton kulolchiligining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi holati tadqiqotchilar A. Kushkevich, N.F. Burdukov, G. Golovin, V.K. Razvodovskiy izlanishlarida aks etgan [4:134-137;78;]. Rishton kulolchiligining XX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmidagi lokal an'analari tadqiqotchilardan Y.M. Peshereva, S. Ibrohimov va mualliflar N.S. Sadikova, L.G. Lefteeva, N.K. Sultanova, K. Tursunaliyevning ishlarida o'rganilgan [5:213;145]. Mustaqillik yillarida Rishton kulolchilik an'analari yangi aspektda tadqiq qilina boshlandi. Jumladan, B. Farmonovanning ilmiy tadqiqot ishini misol keltirishimiz mumkin [6:19]. Ayniqsa, S. Alieva va L. X. Kadzaeva ishlarida Rishton kulolchiligining mahsulot tayyorlash an'analari, usta-shogird munosabatlari san'atshunoslik nuqtai-nazaridan izchil tahlil etildi [7:34-35].

Kulolchilikka oid adabiyotlar tahlili, hunarmandlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra kulolchilikdagi alohida xususiyatlarni paydo bo'lishi, ommalashishi, aynan shu markazga xos belgiga aylanib borishi bir qolipdagi jarayon emas. Bunday hududiy alomatlarini qaror topishi uzoq vaqt davomida yuz bergan.

Rishtonlik ba'zi kulollarni ta'kidlashicha, Rishton kulolchiligidagi alohida xususiyat bu uning mahsulotlari shaklida aks etadi. Rishtonda kulolchilik buyumlaridan tovoqsozlik va ko'zagarlik rivoj topgan. Chunonchi, Rishton o'zining tovoqlari bilan mashhur bo'lib, ushbu markazda *nimcharxi, charxi xonaki, mehmonxona charxi* kabi tovoq turlari tayyorlangan. Mazkur markaz tovoqlari chetining yengilgina tashqariga qayrilishi, devorlari ba'zan qayrilib, gohida deyarli to'g'ri idish tubiga anchagina keskin tushib borishi bilan ajralib turgan. Taniqli usta K. Ibrohimovning so'zlariga ko'ra XIX asr oxiri –XX asr boshlarida Rishtonda charxi tovoq bu yerda tagligi keng, devori qisqa yasalgan. Bunday usulda tovoqlar yasashga mahalliy shirali loy imkon bergan. Shu tarzda G'urumsaroyda kosa devori qalin, poshnasi baland, Shahrixonada kosa devori past va qalin, ichi keng, poshnasi yupqa, Rishtonda esa shirali loy tufayli kosa devori yupqa, nafis va baland, ichi keng hamda poshnasi baland tarzda yasalgan [8:1].

Rishtonlik kulollar mahalliy tuproq loyi xususiyatlarini yaxshi bilgan, shuni hisobga olgan holda o'z uslublarini ishlab chiqqanlar. Tuproq tarkibi shirali bo'lmasa bunday shakldagi sopol buyumni tayyorlash anchayin qiyin kechgan. Agar tuproq tarkibida qum aralashmasi miqdori ko'p bo'lsa, undan loy tayyorlanganda sopol buyum yasash qiyin kechgan. Murakkabroq shaklli idishlarni cheti tez yorilib ketgan. Bunday loydan buyum yasash vaqti, ishlovi, buyumni quritish jarayoni, xumdonda pishirish va pardoz berish o'ziga xos bo'lgan. Shu sababdan Rishton kulolchiligi lokal an'analarni belgilab beruvchi omillardan biri uning tuproq xom-ashyosi bilan bog'liq yuzaga kelgan jihatlar deb aytish mumkin.

Shu sababdan boshqa maktab vakillari tuproq tarkibidagi shiralilikni oshirish uchun o'tmishda loyga qamish kuli va to'zg'oq qo'shganlar. Rishtonda bunday qo'shimchalarga ehtiyoj bo'lmagan. Rishtonda kulolchilik tuprog'i "xoki surx" ya'ni "qizil tuproq" deb atalgan maxsus tarkibga ega. Bunday tuproq qishloq hududidagi tuproq konlaridan olingan. Bunday tarkibli tuproq aynan Rishton qishlog'i hududida uchraydi. Ta'kidlash kerakki, keyingi davrda qishloq tashqarisidan ham kulolchilik tuprog'ini keltirish yuz bermoqda. Natijada bu jihat markaz sopol buyumlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kulolchilikdagi muhim jarayon bu tuproqdan kulolchilik loyi tayyorlash jarayoni bo'lib, bunda har bir markaz yoki undagi ustaning o'z uslubi shakllanib borgan. Rishton kulolchilik ustaxonalari odatda 3 qismdan *charxxona*, *xumdonxona* va *loyxonadan* iborat bo'lgan. Bunda keltirilgan tuproq avval quritilgan, maydalangan, elangan va chiqindilardan tozalangan. So'ng loy qilingan. Loyni qorish jarayoni turlicha bo'lgan. Loy tayyor bo'lgach tindirish uchun ho'l latta bilan o'rab qo'yilgan. Rishton kulolchiligida loyga shu shaklda bir necha marta ishlov berish an'anasi mavjud. [9:1]. Tayyor loydan avval kichik g'o'lalar ajratilgan va undan kulolchilik charxida buyum yasashga kirishilgan. Rishton kulollari kulolchilik charxining tuzilishi Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalaridagi dastgohlarning tuzilishiga o'xshaydi. Faqat dastgohni ayrim qismlarining yasalishi va nomlanishida mahalliy jihatlar ko'zga tashlanadi. Kulollar dastgohda aylanib turgan idish devori yuzasini maxsus yog'och tekislagich "mola" bilan ishlov berganlar. Ustalarni ta'kidlashicha bunday asboblarning umumiy tuzilishida yasaladi deb qaralsa-da, aslida har bir ustaning molasi o'ziga xos bo'lgan. Bu jihat esa uni mahsulotini ham farqli yasashiga ta'sir ko'rsatgan. Kulolchilik sulolalarida ustadan shogirdga turli asboblarning ham meros o'tgan.

Rishton ustaxonalarida doimo ikkita kulolchilik charxi bo'lib, bittasida buyum yasalsa, ikkinchisida yasalgan buyum poshnasi chiqarilgan. Yasalgan buyum quritishga qo'yilgan. Idish salqinda "ko'ktarosh" ya'ni nisbatan uzoq vaqt davomida quritilgan. Shu sababli buyumlar quritishda kam yorilgan. Rishtonlik kulollar chinni kosani ham shunday usulda tayyorlagan, faqat idish charxda yasalgach, avval oftobda 1–2 soat, so'ngra salqinda 2 kun quritilgan. Yuqoridagi fikrlardan aniqlanadiki, Rishton kulolchiligidagi lokal xususiyatlarni shakllanishiga ustalar tomonidan loy tayyorlash, undan buyum yasash, bunda foydalaniladigan turli asboblarni tayyorlash borasida asrlar davomida ishlab chiqqan an'analar muhim rol o'ynagan.

Vodiyda kulollar buyum sirtiga beradigan tagsir rangiga ko'ra *oqpaz*, *qizilpaz* va *sariqpaz* tarzida farqlanib, o'ziga xos mahalliy xususiyat kasb etadi. Rishtonda buyumga oqtosh hamda ishqordan rangsiz tagsir berilgan. Tagsir idish mustahkamligini oshirgan. Yirik idishlarni avval echki yungli, tuzli loy bilan artib, so'ngra tagsir berilgan. Ushbu usul Rishton kulolchiligi etnohududiy belgilaridan biri bo'lgan. Idishdagi tagsir qurigach, Rishtonda buyum sirtiga tabiiy mineral bo'yoqlar bilan moyqalam yordamida "qalami" uslubida naqsh chizilgan. Ta'kidlash kerakki, kulolchilikda turli minerallarning o'rni ham muhim bo'lib, Rishtonga gilbo'ta Isfaradan, mag'l va jo'sha (qizil tuproq) Chorkudan, mis esa mahalliy konlardan va Qo'qondan keltirilgan.

Kulolchilikdagi etnohududiy jihatlar buyumga beriladigan naqsh bo'yoqlarida aks etadi. Rishton kulolchiligida buyumlarga asosan ko'k, feruzarang, havorang, yashil (lojuvard) va biroz kamroq qizil, qora, qora-qizil, sariq, jigarrang tusdagi metall ranglar bilan naqshlar berilgan. Bo'yoq olishning ikki xil usuli: *un qilib tortish* va cho'yan qozonda ezib *gard qilish* usullari keng tarqalgan. Rishtonlik sulolaviy usta A. Yuldashevning ta'kidlashicha, Rishton kulolchiligining an'anaviy rang belgisi bu – lojuvard deb nomlanuvchi ko'k-havorang va yashil-havorang

bo'yoqlar majmuasidir. Ular o'z navbatida jigarrang-safsar ranglar bilan uyg'unlashganligi bois ajralib turadi va o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Ushbu uslublarni Rishtonda shakllanishi bo'yicha turlicha qarashlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar uni asosi temuriylar davrida yuzaga kelgan deb ta'kidlagan [10:1]. Ustalar bunday uslub mahalliy xom-ashyo asosida asrlar davomida shakllanganligini bildiradilar. Shuning uchun Rishton kulolchiligi buyumlariga naqsh berishda Samarqand, Buxoro va Toshkent maktablaridan keskin farq qiladi. Mintaqada faqatgina ko'k-oq-yashil metall ranglardan foydalanuvchi Xorazm kulolchilik maktabi ushbu soha bo'yicha Rishton kulolchilik maktabiga yaqin turadi [11:16].

Aynan naqsh ranglarini tayyorlash borasida ham mahalliy usullar ishlab chiqilgan. Rishtonda ko'k rang lojuvarddan, qora rang mag'ildan tayyorlangan. Agar qoramtil sapsar rang kerak bo'lsa lojuvardga mag'il, havorang kerak bo'lsa lojuvardni biroz suyuqroq tayyorlash lozim bo'lgan. Shu tarzda jigarrang uchun esa mag'ilga jo'sha va gilbo'ta, qora qizil rang uchun jo'shaga mag'il qo'shish asosida hosil qilingan. Yashil bo'yoq rishtonda ko'p ishlatilgan. Uni olishni bir necha usuli bo'lgan. Chunonchi, yashil rang uchun mis avval xumdonda kuydirilgan. Olingan quyqa endi sangopda tuyulib, so'ng elangan. Kukunga suv qo'shib, zarur bo'yoq olingan. Boshqa bir usulga ko'ra yashil rang uchun mis bo'lagi tosh qozonga solinib, suv qo'yib, kigiz bilan ishqab, qolgan quyqani elab, bo'yoq olingan. Oq rang oqtoshdan, qora rang mag'ildan, qizil rang jo'shadan tayyorlangan. Demak Rishton kulolchiligidagi lokal xususiyatlarni paydo bo'lishiga mineral xom-ashyolarni o'ziga xos tarkibi ham muhim o'rin tutgan.

Rishton kulolchilik naqshlarida aholining etnik an'analari, turmush tarzi, geografik muhiti ta'siri va qadimiy diniy tasavvurlari namoyon bo'lgan. Jumladan, Rishtonda 300 ga yaqin naqsh turi bo'lib, bulardan *anorgul, guldon, qalampir, toj, xo'roz, dumi kaptar, qanoti murg', qo'chqaraq, yirik gulli larzana, tuyako'z, anorgul, baliqcha, ilon yo'l, pilaki, belbog'i, charxi palak, oshiqcha* kabilari keng qo'llanilgan. Pespondentchilarni ta'kidlashicha, *taroqcha, afshon va gultojixo'roz* eng qadimiy naqsh turlari hisoblanadi. O'zbek, tojik aholisi milliy qadriyatlarida anor baraka ramzi, tuya va baliq baxt timsoli hisoblangan. Buyumlardagi pichoq va qalampir tasviri xalqona qarashlarga ko'ra inson hamda xonadonni yozuv kuchlardan himoya qiladi. Bunday qarashlar vodiya keng tarqalgan bo'lib, o'zbek, tojik va yarimo'troq qirg'iz, qipchoq, qoraqalpoq etnoslari milliy qadriyatlarida ham uchraydi. Chunonchi tadqiqotchi M. Rahimovning bergan ma'lumotiga ko'ra, rishtonlik kulollar H. Yunusov (1874 yil tug'ilgan) va M. Mamadaliyevlar (1898 yil tug'ilgan) idish o'rtasidagi pichoq yoki pichoq qini tasviri xonadon sohibini turli yovuz ruhlardan saqlashini bildirganlar. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, idishlarga bunday belgilarni qo'yish Markaziy Osiyo, shu jumladan, Farg'ona vodiysida qadimdan yuzaga kelgan bo'lib, hunarmandchilikdagi qadimiy diniy tasavvurlar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan.

Buyum sirtidagi naqsh qurigach, ustidan endi rangsiz oq tepasir berilgan. Bunday hunarmandlar "safedpaz" deb nomlagan. Rangsiz tepasir quyidagicha tayyorlangan: tog'da qirqbo'g'im o'simligi kuydirilib, undan ishqor olingan va xumdonda kuydirilib, keyin yorg'uchoqda un qilib tortilgan. Unga 20/0,5 miqdorida ohar qo'shib, zarur bo'lgan rangsiz tepasir olingan. Xorazmda ham shu usul qo'llanilgan. Bu ikki mintaqa kulolchilik uslubidagi o'xshashlik foydalanilgan tabiiy mineral va bo'yoqlar asosida yuzaga kelgan. Bunday shaklda sir berishda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rishton Markaziy Osiyoning markazi sifatida ham tanilgan. Ushbu tarmoqning yuqori pog'onaga ko'tarilishida usta Abdullaning o'zni katta bo'lgan [12:4]. Bu davrda Rishtonda kulolchilikni rivojiga usta Mahmudbek, usta To'xta, usta

Madamin Oxun – Chinnipaz, usta Boyniyozmat, usta Matyoqub G‘oziev, usta O‘lmas Ortiqboev, usta Adul Qosim Boltaboy, Boysalim Ko‘zagar kabi kulollar muhim hissa qo‘shgan. Rishton kulolchiligida tepasir berilgan idishni xumdonga pishirish ham o‘ziga xos bo‘lgan.

Bildirilgan fikrlarga xulosa qiladigan bo‘lsak Rishton kulolchilik maktabi etnohududiy xususiyatlarini shakllanishiga quyidagi omillar ta‘sir etgan. Bunday dastlabki muhim sabab hududga xos tuproq xom-ashyosidir. Keyingi omil mazkur tuproq tarkibi negizida kelib chiqqan mahalliy ustalarning loy tayyorlash, undan buyum yasash, shunga mos ravishda turli asboblari tufayli deb aytish mumkin. Shuningdek, tadqiqotlar Rishton kulolchiligidagi lokal xususiyatlar mahalliy mineral bo‘yoqlar xom-ashyosi, aholining etnik an‘analari, turmush tarzi, geografik muhit ta‘siri va qadimiy diniy tasavvurlari asosida tarkib topganligidan guvohlik beradi. Eng asosiysi sulolaviy kulolchilik xonadonlarida asrlar davomida tinimsiz izlanishlar sabab mahalliy xususiyatga ega bo‘lgan boy tajriba maktabini shakllanib kelganligi lokal an‘analarni paydo bo‘lishining asosiy omili edi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Esonov Z. FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT POTTERY CRAFTSMANSHIP OF THE FERGANA VALLEY// Journal of Applied science and social science. Volume 15, Issue 12, Desember 2025.
2. Esonov Z. Farg‘ona vodiysining o‘rta asrlar davri kulolchilik hunarmandchiligi tarixidan. // SCIENCE PROBLEMS.UZ. № S/2 (5)- 2025.
3. Пещерева Е.М. Гончарное производства в Средней Азии// ТИЕ Новая серия. –М-Л. 1959. Т. XLII.
4. Кушкевич А. Гончарный промысел в Ходжентском уезде. // Русский Туркестан. Т.II. Москва, 1871; Бурдуков Н.Ф. Гончарное изделия Средней Азии. – СПб 1906; Головин Г. Кустарные промыслы Туркестана// Вестник Туркестанский сельскохозяйственный промышленной и научной выставки. –Т., 1909; Развадовский В.К. Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае // Туркестанское сельское хозяйство. 1916. №. 4-8.
5. Ibrohimov S. Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. – Toshkent: Fan, 1956; O‘sha muallif. Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. –Toshkent: Fan, 2-3 qism.1959. Садикова Н.С., Лефтеева Л.Г., Султанова Н.К., Турсуналиев К. Кустарные промыслы в быту народов Узбекистана XIX - XX вв. - Ташкент: Фан, 1986.
6. Фармонова Б. Ремесленное производство Ферганской долины во второй половине XIX – начало XX века. – Ташкент, 1994.
7. Alieva S. Rishtonning moviy sopoli. //San‘at. – Т., 1998. №1-3; Кадзаева Л.Х. Керамика Риштана. Традиции и мастера. – Ташкент, 1998.
8. Dala tadqiqotlari. Farg‘ona viloyati, Rishton shahri 2024 yil. A. Nazirov bilan suhbat.
9. Dala tadqiqotlari. Farg‘ona viloyati, Rishton shahri 2024 yil. Sh. Yusupov bilan suhbat.
10. Kodzaev L. An‘anaviy kulolchilik ustasi A. Nazirovning ijodiy ustaxonasi. –Т.: 2015.
11. Bulatov S. O‘zbek xalq amaliy san‘ati. – Toshkent: Mehnat, 1991.
12. O‘zbekiston Respublikasi MDA Fond-273, R-1, Yig‘ma jild-83, 4-varaq.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 4 (6) – 2026*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).